

**ALOXIDA EHTIYOJLI BOLALARGA BARVAQT TIBBIY-REABILITATSION,
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XIZMATINI JORIY ETISH****Olimova Nasiba***University of Business and Science*

Annotatsiya: *Sogʻlom avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalash gʻoyat maʼsuliyatli vazifa, shuning bilan birga, insonparvar siyosat natijasidir. Insonning ijtimoiy barkamolligi uning atrof olamga qanday moslashganligi, jamiyatda oʻzini qanday his etishiga koʻp jihatdan bogʻliq boʻladi. Onaning homiladorlik paytidagi tashqi muhitning salbiy taʼsirlariga yoʻliqishi, turli hil yuqumli kasalliklarga chalinishi, irsiy omillar, qarindoshli nikohlar va boshqa holatlar koʻpincha nogironligi ehtimoli boʻlgan farzandni dunyoga kelishiga sabab boʻladi. Bunday holatlarda bolalarning rivojlanishidagi buzilishlarni vaqtida tashxis qilish, barvaqt tibbiy, psixologik-pedagogik korreksiyalash, ilk yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalar va ularning oilasini maxsus yordam bilan qamrab olish, ikkilamchi nuqsonlarning yuzaga kelishini oldini olish, bolalarni meʼyorida rivojlanayotgan tengdoshlari orasiga integratsiya qilish, rivojlanishi orqada qolayotgan yoki orqada qolish xavfi mavjud boʻlgan bolani aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit soʻzlar. *Barvaqt tibbiy-reabilitatsiya, pedagogik-psixologik korreksiyalash. Alohida ehtiyojli bolalar. Hissiy-irodaviy buzilishlar. Kompleks yordam. Barvaqt yordam hizmati.*

Chaqaloq vaqtdan oldin dunyoga keldi. Shifokorlar chaqaloq jismoniy, ruxiy jihatdan yetilmaganini, organizmda maʼlum bir kamchiliklar borligini oilaga yetkazishadi, chaqaloqni maʼlum bir vaqt perinatal markazda davolashadi. Bu xolat ota-onani tashvishga soladi. Ota-ona tugʻruqxonadan chiqib “nozikroq” tugʻilgan chaqalogʻini olib, yordam uchun bolalar shifokori-pediatrga, soʻng bolalar nevropatologiga murojaat qiladilar. Bolani davolash uchun boshqa shifokor mutaxassislarga murojaat etadilar. Xullas, shifokorlar tashxis qoʻyish va kasalliklarni davolash bilan shugʻullanadilar. Ota-onaga baʼzan vaqtida, baʼzan kechroq bolaning nogiron boʻlib qolishi ehtimoli yuqoriligi haqidagi maʼlumotni yetkazadilar. Nogironligi ehtimoli boʻlgan bolani shifokorlar tomonidan “tezroq” davolash uchun barcha davolash muolajalarini bajaradilar. Bu toʻgʻri, biroq koʻpincha bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun bu davo tadbirlari yetarli emasligini ota-onaga tushuntirish ikkinchi darajaga aylanadi. Bolaning faqat jismoniy salomatligi emas balki tugʻilib atrof muhitga asta-sekin moslashuvi, muloqotga muxtoj boʻlishi, atrofidagi olamni faol oʻrganishi, oʻynashi, qobiliyatini muntazam rivojlantirishi zarurligini koʻp xolda unutib qoʻyiladi.

Erta, barvaqt psixologik-pedagogik korreksiyalash - bu fanlararo bilimlarning yangi sohasi boʻlib, goʻdaklikdan to ilk yoshdagi tibbiy, genetik va ijtimoiy

rivojlanishda orqada qolish xavfi guruxiga kiruvchi bolalarga kompleks, tibbiy-reabilitatsiya, pedagogik-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy va amaliy asosidir.

Barvaqt yordam tashkil etishning asosiy maqsadi: ilk yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalar va ularning oilasini maxsus yordam bilan qamrab olish, bolalarning rivojlanishidagi buzilishlarni tashhis qilish va korreksiyalash, ikkilamchi nuqsonlarning yuzaga kelishini oldini olish, bolalarni me'yorida rivojlanayotgan tengdoshlari orasiga integratsiya qilish, rivojlanishi orqada qolayotgan yoki orqada qolish xavfi mavjud bo'lgan bolani aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaga bolani tarbiyalash, rivojlantirish yo'llari xaqida maslaxatlar berib borish, erta rivojlantirishning yakka dasturini tuzish, ilk yoshdagi bolani sensor-motor sohasini rivojlantirishga qaratilgan ishlar olib borish, psixologik va xuquqiy yordam ko'rsatish, mutaxassislar uchun metodik bazani yaratish muxim vazifalardan biridir.

Olib borilgan tadqiqotlarga qaraganda 3 yoshgacha bo'lgan bolalarni 3% da rivojlanishning turli buzilishlari kuzatiladi.

Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi Farg'ona mintaqaviy filiali axborot konsalting xizmati (AKX) ish faoliyatini tahlil qilsak 2022-2023 yil davomida Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlaridan 550 nafar, nogironligi bo'lgan, alohida ehtiyojli bolalarga kompleks, tibbiy-reabilitatsion, pedagogik-psixologik, ijtimoiy, xuquqiy xizmat ko'rsatildi. Ulardan 280 nafari 0-3 yoshgacha, 170 nafari 4 yoshdan 7 yoshgacha, 100 tasi 8 yoshdan katta bo'lgan bolalarni tashkil etadi. Erta aralashuvi xizmatiga murojaat etgan 3 yoshgacha bo'lgan 280 nafar bolalarda bir yil davomida ko'rsatilgan kompleks xizmatdan so'ng aniq ijobiy o'zgarishlar 27,8% ni, nisbatan ijobiy o'zgarishlar 64,1%, o'zgarishsiz 8,1% tashkil etdi. 4 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda esa aniq ijobiy o'zgarishlar 23,2% ni, nisbatan ijobiy o'zgarishlar 62,3%, o'zgarishsiz 14,5% tashkil etdi. 8 yoshdan katta bo'lgan bolalarda aniq ijobiy o'zgarishlar 5,10%, nisbatan o'zgarishlar 46,7% o'zgarishsiz 48,2%

Taxlil shuni ko'rsatadiki, ilk yoshdagi bolalarning rivojlanish hususiyatlari, asab tizimining egiluvchanligi, buzilgan funksiyalarning kompensatsiyalanishi imkoniyatlari erta kompleks yordamining samarasidir.

Ilmiy tadqiqotlarning natijasida aniqlanishicha bosh miya hajmining 75% bolani aynan 3 yoshgacha bulgan davrida rivojlanadi. Ushbu jarayonda bolada atrof muhitni anglash, sezish, xis kilish va ularga javob qaytarish kabi psixofizik hususiyatlar shakllanadi. Uch yoshgacha bolani, obrazli qilib aytiladigan bo'lsa, "Emotsional kamerton" deyish mumkin. Bola, uni atrofidagi yaqinlarini, ayniqsa onasining kayfiyati, emotsional xolatini kuzatib, ushbu xolatga yuqori sezuvchan rezonator hisoblanadi. Borlikda yuz berayotgan hodisalarga kattalarni qay tarzda emotsional javob berishlarini o'zlashtiradi. Bola tug'ilishidan to 3 yoshgacha bo'lgan davr uning rivojlanishini muhim davri hisoblanadi.

Ilk yoshdagi bolalarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi birlamchi nuqsonlar (miyada qon aylanishining buzilishi, tug'ruq jarayonidagi jaroxatlar, genetik

o'zgarishlar va b.), tevarak-atrofni o'rganish, ijtimoiy ta'sir etuvchilarni idrok etishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularga nisbatan bola beparvo bo'lishi, qiziqish, motivatsiya bo'lmaganligi tufayli ikkilamchi hodisa sifatida unda boshqa turli nuqsonlar paydo bo'ladi. Agar bola bilan vaqtida korreksion – rivojlantiruvchi, kompleks ishlar amalga oshirilmasa ikkilamchi nuqsonlar asosiy o'rinni egallab olib, bolaning birlamchi nuqsoniga, pedagogik qarovsizlik, hissiy-irodaviy buzilishlar, xulq-atvorning buzilishlari kabi boshqa nuqsonlar qo'shiladi, natijada uning kelajak hayotidagi jismoniy, ruhiy rivojlanishi, ta'lim olishi, ijtimoiy molashuvi qiyinlashadi.

Ushbu muammolarni oldini olish hamda yuqoridagi xolatlar yuzaga kelmasli uchun, boladagi o'zgarishlarni erta aniqlab, o'z vaqtida to'g'ri tashhis qo'yish, munosib sog'lomlashtirish rejasi ishlab chiqish va samarali korreksion ishlarni amalga oshirib, majmuaviy tarzda chora tadbirlar asosida ijtimoiy reabilitatsion jarayonga jalb etish muxim ahamiyat kasb etadi. "Ilk yoshdagi bolalarga tibbiy-pedagogik yordam xizmati" faoliyati asosan tug'ilgandan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar hamda ularning ota-onalari, yaqinlari, ularga ma'sul shahslar, bir so'z bilan aytganda ularni qamrab oluvchi muhitdagi shahslarga beminnat xizmat ko'rsatishdan iborat. Bolani dunyoga kelishidan boshlab tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, xolatini baholash, me'yordan og'ishlarni, ya'ni patologiyalarni barvaqt to'g'ri tashxislash, agar o'zgarishlar aniqlansa bolaning ilk kunlaridanoq korreksion ishlarni olib borish, xolatiga ko'ra bosqichma – bosqich kerakli mutaxassislariga yo'naltirib kerakli xizmat ko'rsatilishi zarur.

Filiolda bolalar pediater, nevropatolog, defektolog-logoped va LFK instruktoriga nazoratida bo'ladilar. Buning uchun boladagi asosiy muammo nima ekanligi, unga qayerda va qay tarzda yordam berishni aniqlash o'ta muhimdir. Reabilitatsion, psixologik va pedagogik ishlarni amalga oshirish uchun ota va onalarni mutaxassislar bilan ishlashga tayyorlash lozim. Ko'p holatda stress, ya'ni alohida ehtiyojli farzandni dunyoga kelishi ota-ona ruhiyatiga yomon ta'sir etib, ularda psixologik himoya yuzaga keladi. Tashxisni tan olmasligi yoki inkor etish bilan, ota-ona bolani yanada faolroq "davolatish" payida bo'lib, pedagogik jarayonni "keyinga" qoldirishlari mumkin.

Filiolda ruhiy – nutqiy rivojlanishdan ortda qolgan bolalar, eshitishni pasayishi, irsiy kasalliklar (Daun sindrom va boshqalar), Bosh miya va orqa miya falaji, Markaziy va periferik asab tizimining tug'ma nuqsonlari, logonevroz, dislaliya, ortopedik, ko'rish, eshitish nuqsonlari bo'lgan bolalar ko'rikdan o'tkazilib, barvaqt tashhis qo'yilib, aniqlangan tashxislar majmuaviy tarzda tibbiy-psixologik-pedagogik chora tadbirlar bilan bola organizmining kompensator imkoniyatlari va asosli tanlangan tibbiy chora tadbirga tayangan holda bolaning maksimal darajadagi reabilitatsiyasini ta'minlash maqsadida ishlar olib borilmoqda.

"Barvaqt yordam xizmati" yuqori samarali bo'lib, uni tashkil etish va faoliyat ko'rsatishga sarflangan mablag'lar iqtisodiy jihatdan o'zini oqlashi ko'p davlatlarda isbotlangan. Barvaqt yordam xizmati, maktab yoshiga kelganda, maxsus ta'lim olishga majbur bo'lgan bolalar sonini kamaytiradi. Bunday xizmat alohida ehtiyojga ega

bo'lgan bolalar me'yorida rivojlanayotgan bolalar muhitiga ta'limiy va ijtimoiy integratsiyalanishini ta'minlaydi. Tadqiqotlarning ko'rsatilishicha ilk rivojlanish davridagi korreksiyalash ishlari natijasida perinatal patologiyaga ega bo'lgan bolalarning 30 foizi 6 oylikda me'yorda rivojlanish ko'rsatkichlarga erishadilar, 90 foiz bolalarda esa turg'un ijobiy natijalar kuzatiladi, shu asosda maktabgacha davrda bola me'yorida rivojlanayotgan tengdoshlari jamoasiga qo'shilib ketadi.

ADABIYOTLAR:

1. Muminova L.R. va boshkalar., «Rivojlanishda kamchiligi bulgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalar» Majmuaviy monografiya. «Matrix», 2020
2. Ya.Ye. Chicherina, D.I.Isayeva, Ye.V.Bondareva «Erta tashxis va ilk aralashuv» RBIMM Tashkent 2010
3. M.Yemets «Beznadejnyx sluchayev ne byvayet» - «Ranneye vmeshatelstvo: Vchera, segodnya, zavtra», Jurnal vypusk 1, 2008.
4. Ye.R.Yarskaya-Smirnova, E.K.Naberushkina. «Nogironlar bilan ijtimoiy ish» M., 2003.
5. G.G.Shanko «Reabilitatsiya detey s psixonevrologicheskimi zabolevaniyami rannego vozrasta» NPK – Minsk 2004